



**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ  
XO‘JALIGINI MEXANIZATSİYALASH  
MUHANDISLARI INSTITUTI”  
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**

**Kafedra:**

**Irrigatsiya va melioratsiya**

**Fan:**

**Suv xo‘jaligi va melioratsiyaga  
kirish**

**Dots. Botirov Sh.Ch.**

**Toshkent**



## **Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati**

### **Asosiy adabiyotlar**

- 1.Костяков А.Н. “Основы мелиорации”. М. Сельхозгиздат. 1960. - 624 л.
- 2.Raximbayev F.M., Xamidov M.X. “Qishloq xo‘jalik melioratsiyasi”. Toshkent. «Mexnat». 1996.-364 bet.
- 3.Muxamedov A.Q. “Suv xo‘jaligi va melioratsiyaga kirish” fanidan o‘quv qo‘llanma. Toshkent. TIMI bosmaxonasi. 2008 yil. 162 bet.
- 4.Muxammadjonov A. “O‘zbekistonning qadimgi gidrotexnika inshootlari”. Toshkent . O‘zbekiston. 1997 yil. 88 bet.
- 5.Иrrигация Узбекистана. I-IV том. Ташкент. «Фан» 1981 г.
- 6.Xamidov M.X., Shukurlayev X.I., Mamataliyev A.B. “Qishloq xo‘jaligi gidrotexnika melioratsiyasi”. Toshkent., Sharq. 2008.-408 bet.

### **Qo‘srimcha adabiyotlar**

- 1.Raximbayev F.M. va boshqalar. “Qishloq xo‘jaligida sug‘orish melioratsiyasi”. Tashkent. “Mexnat”. 1994.-327 bet.
- 2.Raximbayev F.M., Shukurullayev X.I. “Zax qochirish melioratsiyasi”. Toshkent. “Mehnat”. 1996.-201 bet.
- 3.Рахимбаев Ф.М. “Практикум по сельскохозяйственным гидротехническим мелиорациям”. Ташкент. “Мехнат”. 1988.-363 бет.
- 4.Рахимбаев Ф.М. “Практикум по сельскохозяйственным гидротехническим мелиорациям”. Ташкент. “Мехнат”. 1991.-391 бет.
- 5.O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi 1-12 tom.



**Mavzu: «Suv xo‘jaligi va melioratsiya» yo‘nalishi  
bo‘lajak bakalavrlarning malakaviy faoliyatlari,  
obyektlari, faoliyatlari turlari. Juhon mamlakatlarida  
sug‘orish va drenaj (zax qochirish).**

## **MA’RUZANING REJASI**

- 1.“Suv xo‘jaligi va melioratsiya” ta’lim yo‘nalishi.  
Bo‘lajak bakalavrlarning malakaviy faoliyatlari,  
obyektlari, faoliyatlari turlari.**
- 2. Sug‘orish nima?**
- 3.Zah qochirish nima va qanday amalga oshiriladi?**
- 4.Dunyo mamlakatlarida sug‘orma dehqonchilik.**
- 5. Sug‘orma dexqonchilik tarixi**
- 6.Talabalar mavzuni o‘zlashtirishlari uchun nazorat  
savollari.**

**«Suv xo‘jaligi melioratsiya» yo‘nalishi bo‘lajak bakalavrlarning malakaviy faoliyatlari, obyektlari, faoliyatlari turlari. Juhon mamlakatlarida sug‘orish va drenaj (zax qochirish) mavzusidagi ma’ruza mashg‘ulotining texnologik xaritasi**

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	talabalar
	o‘qituvchi	
I. Kirish bosqichi (10 daqiqa).	<p>1.1. Mavzuning nomi, maqsadi, rejalashtirilgan o‘quv mashg‘uloti natijalari va uni o‘tkazish rejasi bilan tanishtiradi.</p> <p>1.2. Mashg‘ulot ma’ruza, tushuntirish va namoyish shaklida o‘tkazilishini va baholash mezonlarini ma’lum qiladi</p> <p>1.3 Fanni o‘rganish uchun adabiyotlar ruyxati bilan tanishtiradi.</p>	Tinglaydilar, yozib oladilar
II. Asosiy bosqich (55 daqiqa).	<p>2.1. Mavzu bo‘yicha ma’ruza va uning rejasi, asosiy tushunchalar bilan tanishtiradi.</p> <p>2.2. Ma’ruzani yorituvchi slaydlarni Power pointda namoyish va sharhlash bilan mavzu bo‘yicha asosiy nazariy bilimlarni bayon qiladi.</p> <p>2.3. Jalb qiluvchi savollar beradi; mavzuning har bir qismi bo‘yicha xulosalar qiladi; eng asosiy tushunchalarga e’tibor qaratadi.</p>	Tinglaydilar, Yozib boradilar. Savollarga javob beradilar
III. Yakuniy bosqich (15 daqiqa).	<p>3.1. Mavzuni umumlashtiradi, umumiylar qiladi, yakun yasaydi, savollarga javob beradi.</p> <p>3.2. Talabalarga mavzu bo‘yicha nazorat savollarini e’lon qiladi.</p> <p>3.3. Mustaqil ish uchun vazifa beradi: mavzuga oid yangi ma’lumotlarni topib, mustaqil o‘qib kelish.</p>	Diqqat qiladilar. Savol beradilar. Savollarga javob beradilar. Vazifani yozib oladilar.

# Suv xo'jaligi va melioratsiya

**Suv xo'jaligi** - orqali quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- Kanal, ombor, daryo va boshqa suv manbalari nazorati amalga oshiriladi;

- Inshootlarni ishchi xolatda saqlash va boshqalar;

- Sug'orish va zah qochirish tarmoqlarini loyihalash, qurish va ta'mirlash.

**Melioratsiya** - yer xolatini yaxshilash.



Ўзбекистон Республикаси  
Сув хўжалиги вазирлиги

Корақалпогистон Республикаси  
Сув хўжалиги вазирлиги,  
иригация тизимлари ҳавза  
бошқармалари

Магистрал каналлар (тизимлар)  
бошқармаси

Иригация тизимлари  
бошқармаси

Туманлар (Кувасой шаҳар)  
иригация бўлимлари

Насос станциялари  
ва энергетика бошқармалари

Мелиоратив  
экспедициялар

Қарши магистрал каналдан  
фойдаланиш бошқармаси

Аму-Бухоро машина каналидан  
фойдаланиш бошқармаси

Фарғона водийси магистрал  
каналларидан фойдаланиш  
бошқармаси

Жанубий Мирзачўл каналидан  
фойдаланиш бошқармаси

Зарафшон магистрал каналидан  
фойдаланиш бошқармаси

Кирғоқ ҳимояловчи дамбалар  
ва ўзан ростловчи иншоотлар  
бошқармаси

Ўнг кирғоқ коллекторидан  
фойдаланиш бошқармаси

Сув омборларидан фойдаланиш  
бошқармаси

Жиззах бош насос станцияси  
бошқармаси

Марказий диспетчерлик,  
коммуникация ва кадастр  
хизмати

Ахборот-таҳлил ва ресурс  
маркази

«Давсувиҳўжаликназорат»  
давлат инспекцияси

«Сувлойиҳа»  
давлат унитар корхонаси

«Ўзсувэкспертиза»  
давлат унитар корхонаси

«Ботиометрик марказ»  
давлат унитар корхонаси

Иригация ва сув муаммолари  
илмий-тадқикот институти

Таълим муассасалари  
(коллежлар)

Сув хўжалиги соҳасидаги  
лойиҳаларни амалга ошириш  
агентлиги

«Сувқурилишинвест»  
давлат унитар корхоналари


Лойиҳаларни амалга ошириш  
гурухлари

# Ҳавза бошқармалари

<b>1</b>	Қорақалпоғистон Республикаси Сув хўжалиги вазирлиги	Нукус ш., Т.Қайпберганов к., 25-үй
<b>2</b>	Норин-Қорадарё ирригация тизимлари ҳавза бошқармаси	Андижон ш., Н.Охунов к., 40 <sup>a</sup> -үй
<b>3</b>	Норин-Сирдарё ирригация тизимлари ҳавза бошқармаси;	Наманган ш., Ҳамроҳ к., 66-үй
<b>4</b>	Сирдарё-Сўх ирригация тизимлари ҳавза бошқармаси;	Фарғона ш., Ал-Фарғоний к., 72-үй
<b>5</b>	Қўйи Сирдарё ирригация тизимлари ҳавза бошқармаси;	Гулистон ш., Ҳондамир к., 127-үй
<b>6</b>	<i>Сирдарё-Зарафшон ирригация тизимлари ҳавза бошқармаси</i>	Жizzах ш., Бешқувур к., 56-үй
<b>7</b>	Чирчиқ-Оҳангарон ирригация тизимлари ҳавза бошқармаси;	Тошкент ш., Роҳат к., 13-үй
<b>8</b>	Аму-Сурхон ирригация тизимлари ҳавза бошқармаси;	Термиз ш., М.Қаҳхор к., 19-үй
<b>9</b>	Аму-Қашқадарё ирригация тизимлари ҳавза бошқармаси;	Қарши ш., И.Каримов к., 81 <sup>a</sup> -үй
<b>10</b>	Аму-Бухоро ирригация тизимлари ҳавза бошқармаси;	Бухоро ш., Б.Нақшбанд к., 297/1-үй
<b>11</b>	<i>Амударё соҳили чап қирғози ирригация тизимлари ҳавза бошқармаси</i>	Урганч ш., М.Хоразмий к., 1-үй
<b>12</b>	Зарафшон ирригация тизимлари ҳавза бошқармаси.	Самарқанд ш., Гагарин к., 70-үй
<b>13</b>	<i>Қўйи Зарафшон ирригация тизимлари ҳавза бошқармаси</i>	Навоий ш., А.Навоий к., 24-үй

Хамда: Бирлашган диспетчерлик маркази (Фарғона водийси магистрал каналлари тизими бошқармаси).

# ЎЗБЕКИСТОН СУВ ХЎЖАЛИГИ



- **180 минг км** суғориш тармоқлари;
- **140 минг км** коллектор-дренаж тармоқлари;
- **47105 дона** давлат ҳисобидаги сув хўжалиги иншоотлари, шундан 800 таси йирик иншоотлар;
- Йиллик электр энергияси сарфи **7,8-8,0 млрд.кВт** бўлган давлат ҳисобидаги **1693 дона** насос станциялари;
- Сув истеъмолчилари уюшмалари ва фермер хўжаликлари ҳисобидаги **9397 дона** насос агрегатлари;
- умумий ҳажми **21 млрд.м<sup>3</sup>** бўлган **56** та сув омборлари;
- **5000** дан ортиқ тик суғориш қудуқлари, шундан **900** донаси Сув истеъмолчилари уюшмаси ва фермер хўжаликлари ҳисобидаги;
- **3787 та** тик дренаж қудуқлари;
- **25 мингга яқин** кузатув қудуқлари;
- **3777 та** турли хилдаги мелиоратив машина ва механизмлар, шу жумладан **1178 та** экскаватор ва **320 та** бульдозерлар мавжуд.



# Мелиорация сўзи нима?

Мелиорация – лотинча сўздан олинган бўлиб, “яхшилаш” маъносини англатади.

Кишлоқ хўжалигини ривожлантириш учун фойдали бўлган тадбирларнинг ҳаммаси **кишлок хўжалик мелиорацияси дейилади.**

Ерларни мелиорациялашнинг гидротехник, агромелиорация, ўрмон-мелиорация, тупроқнинг сув ва шамол эрозиясига қарши курашиш мелиорацияси мавжуд.

Республикамиз шароитида суғориладиган майдонлардан самарали фойдаланиш, суғориладиган ерларнинг унумдорлигини яхшилаш ва қишлоқ хўжалиги экинларининг ҳосили ва сифатини ошириш–ерларнинг мелиоратив ҳолатига бевосита боғлиқдир.

Хозирги даврда, Республикаиздаги мавжуд **4,3 млн.** гектар суғориладиган майдонларнинг **1,956 млн.гектари** (**45,6** фоиз) турли даражада шўрланган.

Жумладан, **1316,6** минг гектари (**30,7** фоиз) кам, **541,5** минг гектари (**12,6** фоиз) ўрта ва **98,7** минг гектари (**2,3** фоиз) кучли шўрланган ерлар жумласига киради.


Суғориладиган майдонларнинг **323,2** минг гектарида (**7,5** фоиз) ер ости сизот сувлари сатҳи қишлоқ хўжалиги экинларининг нормал ривожланиши учун мақбул бўлмаган чуқурликларда (**1,5** метргача) жойлашган.

Ушбу суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаб бориш ва ер ости сизот сувлари сатҳини меъёр даражасида ушлаб туриш учун **140** минг км. узунликдаги коллектор-дренаж тармоқлари, **3593** дона вертикал дренаж қудуклари ҳамда **123** дона мелиоратив насос станциялари хизмат кўрсатиб келмоқда.

# Суғориладиган ерларниң шўрланганлик даражаси

Шўрланмаган  
2336,5 минг га

Кам шўрланган  
1316,6 минг га





## **“Suv xo‘jaligi va melioratsiya” ta’lim yo‘nalishi. Bo‘lajak bakalavrlarning malakaviy faoliyatlari, obyektlari, faoliyatlari turlari.**

«Suv xo‘jaligi va melioratsiya» bakalavriat ta’lim yo‘nalishini tamomlagan bakalavrlar o‘zining fundamental umumkasbiy va maxsus tayyorgarligiga muvofiq quyidagi kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanadilar:

### **Ishlab chiqarishda qanday ishlar amalga oshiriladi**

- Sug‘orish va zax qochirish tizimlarini loyihalash.
- Ulardagi gidrotexnik inshootlarni loyihalash.
- Kanal va zovurlarni qurish, ekspluatatsiya qilish, ta’mirlash va rekonstruksiya qilish.
- Havza va irrigatsiya tizimlari boshqarmalarida suvdan foydalanishni nazorat qilish.
- Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini ko‘zatish.
- Irrigatsiya va melioratsiya tizimlaridan oqilona foydalanish va ularni takomillashtirish.
- Zamonaviy sug‘orish texnikalarini yaratish.



## **Ishlab chiqarish boshqaruvida quyidagilar amalga oshiriladi**

- Suv xo‘jaligi tashkilotlarida texnologik jarayonlarni boshqarish.
- Nazorat qilish.
- Xisobot yuritish hamda tashkilotchi sifatida ishslash.

## **Loyiha-qidiruvda bajariladigan ishlar**

- Loyiha smeta ishlarini tuzuvchish
- Qidiruv ishlari kompleksini bajarish
- Xujjatlarni yuritish.

## **Ilmiy faoliyatda qilinadigan ishlar**

- “Melioratsiya va sug‘orma dehqonchilik” ixtisosligi bo‘yicha ilmiytadqiqot ishlarni olib borish.
- Dala tajriba ishlarini o‘tkazish.
- Olingan natijalarni tahlil qilish.



## **Ta’lim sohasidagi ishlar**

- Oliy va o‘rta maxsus kasb ta’limi muassalarida:
- Ustoz va pedagog sifatida faoliyat yuritish.
- Yangiliklarni tashkilotlarga va ishlab-chiqarishga tadbiq qilish.

## **Магистратурада тахсил олиш**

### **60812300 – Suv xo‘jaligi va melioratsiya (ta’lim yo‘nalishi)**

#### **Magistratura mutaxassisliklari**

- 70812301-Gidromelioratsiya.
- 70812302-Melioratsiya va sug‘orma dehqonchilik.
- 70812303-Suv kadastri va suv resurslaridan samarali foydalanish.
- 70812304-Qishloq xo‘jalik suv ta’minoti muxandislik tizimlari va inshootlari.
- 70812305-Gidromelioratsiya tizimlaridan foydalanish.
- 70812306-Suv tejamkor sug‘orish texnologiyalari.
- 70812307-Suv resurslaridan mukammal foydalanish va boshqarish.
- 70812308-Сув сифатини бошқариш.
- 70812309-Yaylovlar melioratsiyasi.

## Sug‘orish nima?

***Sug‘orish*** – bu tuproqni sun’iy namlantirish yoki tabiiy namligi yetarli bo‘lmagan yerlarga suv keltirishdir.





# *Сүгөриш усуллари*

- 1.Ер устидан;
- 2.Ёмғирлатиб;
- 3.Тупроқ ичиdan;
- 4.Томчилатиб;
- 5.Тупроқ остидан  
(субирригация);
- 6.Аэрозоль (туман хосил  
килиб, майда дисперсли)



# Ер устидан суғориши



# Ёмғирлатиб суғориш усули




# Тупрок ичидан суғориш.



# Томчилатиб суғориши



# Субирригация сүфориш усули



# Аэрозоль (пуркаб, майда дисперсли) суғориши усули




# Zax qochirish nima va qanday amalga oshiriladi?

- **Zax qochirish** - bu tuproqda mavjud bo‘lgan ortiqcha namlikni daladan olib chiqib tashlashdan iborat.




**Зах  
қочириш  
мелиорацияси нинг  
вазифаси тупроқнинг  
унумдорлигини  
ошириш мақсадида,  
унда ўсимликлар учун  
кулай сув тартибини  
ва у билан боғлиқ  
бўлган ҳаво, туз, озуқа  
хамда иссиқлик  
тартибларини вужудга  
келтиришдан иборат.**



Тупроқдаги намнинг мақбул микдори экинларниң физиологиясига ва тупроқнинг сув-физикавий хоссаларига боғлиқ бўлиб, бу микдор чегаравий дала нам сиғимиининг **50-80 %** ига тўғри келади. Тупроқда нам ортиқча бўлган такдирда унинг ҳаво ва иссиқлик режимлари меъёрга мувофиқ келмайди, бу эса экиннинг ривожланиши ва ҳосил беришига салбий таъсир этади.



**Зах қочириш** - ортиқча намиққан ердаги сувни кетказиш тупроқ таркибіда ҳаво миқдорини оширади, бу эса унда органик моддаларнинг чириши ва тупроқ унумдорлигининг ошишига имкон беради.




Зах қочириш  
мелиорациясининг  
асосий муаммоси  
курғоқчил зонадаги  
шўрланган ва  
шўрланишга мойил  
бўлган суғориладиган  
ерларни яхшилашдир.



### *Экинлар ҳосилдорлигининг тупроқ шўрланишига боғлиқлик графиги*



# Суғориладиган ерларниң шўрланганлик даражаси



Арид зонада зах қочириш мелиорацияси деганда фақат зах ерлар захинигина кетказиш эмас, балки тупроқнинг фаол қатламидаги зарарли тузларни зовурлар воситасида ювиш йўли билан бутунлай йўқотиш ва минераллашган сизот сув сатхини қуритиш меъёридан пастга тушириб юбориш ҳам тушунилиши керак.



# Zah qochirish nima va qanday amalga oshiriladi?



## Dunyo mamlakatlarida sug‘orma dehqonchilik

Jaxon qishloq xo‘jaligi yiliga 2,8 ming km<sup>3</sup> chuchuk suv ishlataladi. Bu dunyo bo‘yicha chuchuk suv iste’molining 70% ini, yoki jaxon sanoati ishlataladigan suvdan 7 marta ko‘pdir. Bu suvning deyarli xammasi ekinlarni sug‘orishga ishlataladi.

### Sug‘orishga sarflanadigan suv dinamikasi

Ko‘rsatkichlar	Yillar			
	1900	1950	2000	2010
<b>Sug‘oriladigan maydon:</b> - mln.ga -% qishloq xo‘jalik yerlari (xaydalilaniladigan yerlar, o‘tloqlar, yaylovlardan % da)	47,3 3,5	101 7,5	264 19,7	288 27,5
<b>1 nafar odamga to‘g‘ri keladigan sug‘oriladigan yerlar , m<sup>2</sup></b>	296	397	427	405
<b>Qishloq xo‘jaligida iste’mol qilinadigan suv , km<sup>3</sup></b>	513	1080	2605	2817
<b>Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida iste’mol qilinadigan suv (m<sup>3</sup>):</b> - 1 ga sug‘oriladigan maydonga - 1 nafar odamga	10846 321	10693 425	9867 421	9781 396

# Dunyo mamlakatlarida sug'orma dehqonchilik



**Dunyo mamlakatlari bo'yicha sug'oriladigan yerlar**

T.p.	Mamlakatlar	Sug'oriladigan maydon, mln.ga
1	Xitoy	69,01
2	Xindiston	66,70
3	Amerika qo'shma shtatlari	26,40
4	Pokiston	20,20
5	Yevropa Ittifoqi	15,45
6	Eron	9,55
7	Tailand	6,42
8	Meksika	6,50
9	Turkiya	5,22
10	Braziliya	4,45
11	Rossiya	4,30
12	O'zbekiston	4,22
13	Misr	3,65
14	Afg'oniston	3,21
15	Avstraliya	2,55
16	Yaponiya	2,47
Jahondagi sug'oriladigan maydon		299,488

# Sug‘orma dexqonchilik tarixi

## Sug‘orma dexkonchilik rivojlanishi boskichlari:

-**Mavjud qabilalarda** odamlar soni ko‘p bulib, ular birlamchi sug‘orish ishlarini olib borishgan;

-**Quldarlik jamoalari** tashkil qilinishi munosabati bilan va qullar sinfi paydo bo‘lishi natijasida, quldorlar uning kuchi xisobiga nisbatan kattarok kanallar qurishni boshlashgan;

-**Markazlashgan quldorlik davlatlari** vujudga kelishi va ularning sug‘orish tarmoqlarini qurishi va kengaytirishi, ularni bir sug‘orish manbasidan suv olishi va markazlashgan xolda boshqarilishi boskichidir.




# Sug‘orma dexqonchilik tarixi



Sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik O‘rta Osiyo qishloq xo‘jaligining asosi hisoblanib, bu jarayon janubiy Turkmaniston, Tojikiston va O‘zbekistonning janubida bronza (mil. avv. III-II yilliklar) davrida, Toshkent vohasi va uning atroflarida esa ilk temir (mil. avv. VIII-IV asrlar) davrida shakllanib, rivojlandi. O‘rta Osiyoda ilk davlat uyushmalari sun’iy sug‘orish birmuncha qulay bo‘lgan Amudaryo (yuqori, quyi, o‘rta) oqimlari bo‘ylarida, Murg‘ob vohasida, Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida shakllanib rivojlanadi. Bunday holatni dunyo tarixidagi dastlabki davlatlar-Misr (Nil) va Mesopotamiya (Dajla va Frot) misolida ham kuzatish mumkin.

# Sug‘orma dexqonchilik tarixi

Xorazm voxasi dunyoda eng qadimgi sug‘orish boshlangan yerlardir. Tarixchi va arxeologlar: Bartold, Yakubovskiy, Tolstoy, Gulomov va Andrianovlar ma’lumotlariga ko‘ra kanallar qurish va sug‘orish ishlari eramizdan avvalgi 2000-yilarning o‘rtalariga to‘g‘ri keladi.



Eramizning birinchi asrlarida Xorazmda Amudaryoning Daryolik va Daudan nomli irmoklariga osilgan yerlar o‘zlashtirildi. Bu ishlarni bajarishda katta ilmiy va muxandislik masalalar xal kilindi:

-irmoqlari va o‘zining okimi juda xam notekis bulgan Amudaryodan suv olishni yaxshilash, mustaxkamlash;


-daryo suvi naqadar loyka bo‘lib, tarkibida ma’lum mikdorda o‘g‘itlar mavjudligi yerlarning hosildorligini oshirishga xizmat qilishi bilan, kanallar loyqa bosib, kerakli suv sarfini o‘tkaza olmay qolishini oldini olish.

# Sug‘orma dexqonchilik tarixi

Xorazm voxasidagi yerlarning o‘zlashtirilishidagi eng katta yutuq - bu yerlarda ikki tomonlama ishlovchi melioratsiya tizimlarini tashkil qilinishidir:

-voxada chuqur kanallar qazilgan bo‘lib, ulardan suv sug‘orish davrida turli suv ko‘tarish uskunalari yordamida olinib, yerlar sug‘orilar, sug‘orish davri tugagandan so‘ng esa, bu kanallar - zovurlar tarmog‘i rolini o‘tab, yer osti suvlarini satxini pasaytirib, ikklilamchi sho‘rlanish jarayonini bartaraf etar edi.

-Bu sug‘orish tarmoqlari - chig‘irlar orqali sug‘orish deb atalib, Xorazm voxasi XX asrga 40 dan 50 minggacha xar xil suv olib berish xajmiga ega bulgan chig‘irlar bilan kirib keldi.





## Mavzu bo'yicha nazorat savollari

1. Sug'orish, zah qochirish nima va qanday amalga oshiriladi?
2. Dunyo mamlakatlarida sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanishi (yer maydoning o'sish ko'lami, umumiyligida sug'oriladigan yer maydoni va davlatlar ulushi)?
3. Sug'orma dexqonchilik rivojlanish tarixi (mavjud qabilalarda, quldorlik jamoalari, markazlashgan quldorlik davlatlari)?
4. O'rta Osiyoda sug'orma dehqonchilikning rivojlanish tarixi (Amudaryo etaklarida, Xorazm o'lkasi, Gauxvara kanali, Sultanuizdog tepaliklari)?



**E'tiboringiz  
uchun raxmat!**